

**MILLIY BOLALAR O'YINLARI QO'SHIQLARIDA ARXAIZMLAR
VA ULARNING SEMANTIKASI****Sherkulova Madina Erkin qizi***O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"MSMTEB" ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy bolalar o'yin qo'shiqlari matnida uchraydigan arxaik so'z va iboralar, ularning semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Bolalar folklori namunalari — sanashmachoqlar, o'yin qo'shiqlari, topishmoqlar tarkibida saqlanib qolgan arxaizmlar tilning tarixiy taraqqiyotini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Maqolada bunday leksik birliklarning kelib chiqishi, ular ifodalagan ma'no qatlamlari, zamonaviy tilda qo'llanishdan chiqib ketish sabablari yoritiladi.

Kalit so'zlar: bolalar folklori, milliy o'yin qo'shiqlari, arxaizmlar, semantika, leksik qatlam, sanashmachoqlar, etno-lingvistika, o'zbek shevalari.

Аннотация: В данной статье анализируются архаичные слова и выражения, встречающиеся в текстах национальных детских игровых песен, а также их семантические особенности. Образцы детского фольклора — считалки, игровые песни, загадки — сохраняют в себе архаизмы, которые являются важным источником для изучения исторического развития языка. В статье освещается происхождение подобных лексических единиц, смысловые пласты, которые они выражали, а также причины их выхода из активного употребления в современном языке.

Ключевые слова: детский фольклор, национальные игровые песни, архаизмы, семантика, лексический пласт, считалки, этнолингвистика, узбекские диалекты.

Annotation: This article analyzes archaic words and expressions found in the lyrics of national children's game songs, along with their semantic characteristics. Samples of children's folklore — counting rhymes, game songs, riddles — preserve archaisms that serve as an important source for studying the historical development of language. The article covers the origin of such lexical units, the layers of meaning they conveyed, and the reasons for their disappearance from usage in modern language.

Keywords: children's folklore, national game songs, archaisms, semantics, lexical layer, counting rhymes, ethnolinguistics, Uzbek dialects.

Til — millatning ma'naviy xazinasini bo'lib, uning tarixiy taraqqiyoti xalq og'zaki ijodi namunalarida yorqin aks etadi. Bolalar folklori, xususan, milliy o'yin qo'shiqlari ushbu jarayonning o'ziga xos ko'zgusi hisoblanadi. Sanashmachoqlar, o'yin

qo'shiqlari va topishmoqlar tarkibida asrlar osha saqlanib qolgan arxaik so'z va iboralar nafaqat tilning tarixiy leksik qatlamlarini, balki ajdodlarimizning dunyoqarashi, turmush tarzi va qadriyatlarini ham o'zida mujassam etadi. Bugungi kunda globallashuv jarayonlari ta'sirida yosh avlod tilida arxaizmlarning tobora unutilib borayotgani, ularni ilmiy jihatdan o'rganish va tizimlashtirish masalasini dolzarb tadqiqot yo'nalishiga aylantirmoqda. O'zbek tilshunosligida arxaik leksikani o'rganish masalasi ancha yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lsa-da, bu jarayon ko'proq badiiy asarlar va tarixiy manbaalar tilida namoyon bo'lgan arxaizmlar misolida amalga oshirilgan. Biroq bolalar og'zaki ijodi, xususan, milliy o'yin qo'shiqlari tilidagi arxaik qatlam hozirgacha alohida va chuqur tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha o'rganilmagan. Aslida, bolalar o'yin qo'shiqlari — soddaligiga qaramay, tilning eng qadimiy va o'zgarishlarga kam uchragan qatlamlarini o'zida saqlab qoluvchi noyob manbaadir. Mazkur maqola ushbu bo'shliqni to'ldirishga, ya'ni bolalar o'yin qo'shiqlari tilidagi arxaizmlarni aniqlash va ularning semantik xususiyatlarini tahlil qilishga qaratilgan.

Tilshunoslikda arxaizm deb, faol lug'at tarkibidan chiqib ketgan, biroq muayyan uslubiy yoki janr doirasida saqlanib qolgan so'z, ibora yoki grammatik shaklga aytiladi. Arxaizmlar odatda uch turga ajratiladi: leksik arxaizmlar (so'zning o'zi butunlay iste'moldan chiqqan), semantik arxaizmlar (so'z shakli saqlangan, biroq ilgari ma'nosi unutilgan) va grammatik arxaizmlar (qadimgi morfologik shakllar). Bolalar o'yin qo'shiqlari tilida aynan shu uchala turdagi arxaizmlarning namunalarini kuzatish mumkin.

Bolalar folklorining o'ziga xos xususiyati shundaki, u kattalar adabiyotidan farqli o'laroq, tez-tez "tahrirlanmaydi" — sanashmachoq yoki o'yin qo'shig'ini bola o'zidan oldingi avloddan qanday eshitgan bo'lsa, deyarli o'sha holicha keyingi avlodga uzatadi. Bunga sabab, matnning vazifasi mazmunni tushuntirishda emas, balki o'yin jarayonini tashkil etish, ritmni ushlab turish va adolatni ta'minlashda (masalan, sanashmachoqlarda kim "onaboshi" yoki "qorovul" bo'lishini belgilashda) namoyon bo'ladi. Shu bois, hatto ma'nosi unutilgan so'zlar ham qo'shiq matnida saqlanib qoladi — chunki ularning vazifasi tinglovchiga tushunarli bo'lish emas, balki ohang va qofiyani ta'minlashdir. Aynan mana shu holat bolalar o'yin qo'shiqlarini tarixiy leksikologiya uchun bebaho manbaaga aylantiradi.

O'zbek xalqining an'anaviy xo'jalik yuritish tarzi — dehqonchilik va chorvachilik — bolalar o'yin qo'shiqlari leksikasida ham o'z izini qoldirgan. Samarqand viloyati Bulung'ur tumanidan yozib olingan "Poda to'pi" o'yinida quyidagi qo'shiq matni uchraydi¹:

¹ Мардонова Г.А. Ўзбек миллий ўйинлари. – Тошкент: Bookmany print, 2022. – 58-б. ("Пода тўпи" ўйини).

“Govmishimiz to‘llagidan to‘p yasayin, to‘p yasayin,
Shoyi ipdan chatib-chatib to‘r bosayin, to‘r bosayin...”

Bu matnda ikkita muhim arxaik birlik ko‘zga tashlanadi. Birinchisi — “govmish” so‘zi, u hozirgi adabiy tilda deyarli qo‘llanilmaydigan, biroq ba‘zi janubiy shevalarda saqlanib qolgan “kalta shoxli mahalliy qoramol turi, buqa” ma’nosidagi qadimiy zoonim hisoblanadi. Ikkinchisi — “to‘llagi” (fe’l shakli “to‘llamoq”dan) bo‘lib, hayvonning junini to‘kish, ya’ni “junlash, to‘kilish” ma’nosini anglatadi. Xuddi shu fe’l boshqa bir variantda — Qashqadaryo viloyatidan yozib olingan “Ko‘z bog‘lag‘ich” o‘yining qo‘shig‘ida ham takrorlanadi:

“Bahor keldi, yoz keldi, Turna keldi, g‘oz keldi.
Olma, o‘rik gulladi, Govmushimiz tulladi...”

Bu misolda “govmush” (fonetik variant) va “tulladi” so‘zlari orqali bahor faslining kelishi qishloq xo‘jaligi va chorvachilik hayoti prizmasidan tasvirlangani ko‘rinadi — bu esa qo‘shiqning yaratilgan davrida chorvachilik xalq turmush tarzining markazida turganidan dalolat beradi. Bugungi kunda “govmish” so‘zi shaharlik bolalar uchun deyarli tushunarsiz bo‘lib qolgan, biroq u qo‘shiq matnida qofiya va ritm vositasi sifatida saqlanib qolgan.

Bolalar, xususan, qiz bolalar o‘yinlari qo‘shiqlarida moddiy madaniyatga oid, bugungi kunda iste’moldan chiqqan buyum va o‘simlik nomlari alohida qatlamni tashkil etadi. Surxondaryo viloyati Boysun tumanidan yozib olingan o‘yin qo‘shig‘ida: “Chuchmomojon, chuchmomo, Go‘zallikka o‘ch, momo. Qizlar seni taqmasa, Husning bekor, po‘ch momo...”

Bu yerda “chuchmomo” so‘zi — bahorda ochiladigan, bugungi kunda ko‘proq “lolaqizg‘aldoq” yoki mahalliy nomlar bilan yuritiladigan yovvoyi gulning arxaik-dialektal nomidir. So‘z tarkibidagi “chuchmomo” ayni paytda o‘yinning o‘zi nomiga ham aylangan — demak, leksema nafaqat botanik atama, balki butun bir o‘yin janrini nomlovchi termin vazifasini ham bajargan.

Yana bir misol — Toshkent shahridan yozib olingan qiz bolalar o‘yinida (“dugonabosh”lar boshchiligida ijro etiladigan) quyidagi qo‘shiq matni uchraydi:²

“Ro‘molim bor so‘zani, Akang ichmas bo‘zani.
Akang ichsa bo‘zani, Sindiradi ko‘zani.”

Bu to‘rtlikda ikkita arxaik-etnografik atama qo‘llanilgan: “so‘zana” — an’anaviy o‘zbek kashtachiligining nodir namunasi bo‘lgan, gullar va naqshlar bilan bezatilgan katta gilam turi, va “bo‘za” — tariq yoki boshqa g‘alla mahsulotlaridan tayyorlanadigan an’anaviy, milliy ichimlik nomi. Bu so‘zlarning qo‘shiqda saqlanib qolishi shundan dalolat beradiki, qo‘shiq matni yaratilgan davrda bu buyum va

² Мардонова Г.А. Ўзбек миллий ўйинлари. – Тошкент: Bookmany print, 2022. – 143-б. (қизлар ўйини кўшиғи).

tushunchalar kundalik turmushning ajralmas qismi bo'lgan, biroq bugungi kunda ularning o'rnini boshqa zamonaviy realiyalar egallagani sababli leksema ham iste'moldan chiqqan — faqat qofiyaviy zaruratdan qo'shiq matnida “muzlab” qolgan.

Shuningdek, “Qulaq cho'zma” o'yinining qo'shig'ida uchraydigan “cho'zma” fe'lining takroriy-buyruq shaklidagi qo'llanishi (“Cho'zma, cho'zma, cho'zma-yo...”) ham diqqatga sazovor — bu yerda “-yo” undov qo'shimchasi bugungi adabiy tilda deyarli qo'llanilmaydigan, biroq qadimiy qo'shiq va lapar janrlariga xos bo'lgan arxaik affiksalsanir. Toshkent shahrining Fayzobod mahallasidan yozib olingan “Tapir-tupur qaldirg'och” o'yinida quyidagi matn uchraydi:

*“Tapir-tupur qaldirg'och, Ola qanotingni och.
Qirg'iy keldi qiyodan, Chaqqon bo'lib tezroq qoch.”*

Bu yerda ikkita so'z alohida e'tiborga loyiq. “Qirg'iy” — yirtqich qushlar oilasiga mansub, lochinsimonlar turkumidagi qush nomi bo'lib, u bugungi kunda faol lug'at tarkibida deyarli uchramaydi va faqat ov-baliqchilik yoki ornitologik adabiyotda saqlanib qolgan. “Qiyoy” so'zi esa — “tik qiyalik, jarlik, tog' yon bag'ri” ma'nosidagi qadimiy geografik-relyef atamasi bo'lib, zamonaviy tilda o'rnini “qiyalik”, “yonbag'ir” kabi so'zlar egallagan. Bu ikki so'zning bir qo'shiq matnida yonma-yon kelishi tasodifiy emas — qadimda qishloq hayotida yirtqich qushlarning tepalik va jarliklardan tushib, uy qushlarini ov qilishi kundalik ko'rinish bo'lgan, shu sababli bu voqelik bolalar o'yiniga ham ko'chgan va til orqali avloddan-avlodga saqlanib kelgan.

Alohida guruhni sanashmachoqlarda uchraydigan, hozirgi til nuqtai nazaridan mustaqil leksik ma'noga ega bo'lmagan, biroq qadimda muayyan ma'no anglatgan bo'lishi mumkin bo'lgan tovush-so'z birliklari tashkil etadi. Toshkent shahri Sirg'ali tumanidagi Shoshtepa mahallasidan yozib olingan “Joyingni top” o'yinida qorovulni belgilash uchun quyidagi sanashmachoq ishlatiladi:

*“Oppo, hoppo, pish.
Oppo, hoppo, pish.”*

Bunday sanashmachoqlarga xos “oppo-hoppo” kabi birliklar tilshunoslikda ko'pincha “sun'iy-o'yin so'zlari” yoki “sanoq arxaizmlari” deb ham yuritiladi. Ularning kelib chiqishi haqida ikki xil qarash mavjud: birinchisi — bu so'zlar qadimgi sanoq tizimining, jumladan, qo'y-echki sanashda ishlatilgan cho'pon sanog'ining izlari ekanligini ta'kidlaydi; ikkinchisi esa ularni sof ritmik-fonetik hosila, deb hisoblaydi. Har ikki holatda ham bu birliklar zamonaviy so'zlashuv tilida mustaqil ma'no kasb etmasa-da, ularning o'yin matnida qat'iy o'rin egallashi va asrlar osha o'zgarmasdan saqlanib qolishi ularni ham keng ma'noda arxaik-folklor unsurlari sirasiga kiritish imkonini beradi.

Shunga o'xshash hodisani “Qo'lingni ber” (petna) o'yinidagi “Men petnachiman!” iborasidagi “petnachi” so'zida ham kuzatish mumkin — bu so'z zamonaviy adabiy

tilda “quvlashmachoq boshlovchisi” ma’nosida qo‘llanilmaydi va faqat mahalliy bolalar o‘yini terminologiyasida saqlanib qolgan.

Yuqorida keltirilgan tahlil asosida arxaik so‘zlarning aynan bolalar o‘yin qo‘shiqlarida saqlanib qolishining bir necha asosiy sababini ko‘rsatish mumkin:

Birinchidan, ritmik-qofiyaviy zaruriyat. Ko‘p hollarda arxaik so‘z faqat qofiyani ta’minlash uchun matnda saqlanadi (masalan, “govmush — tulladi”, “so‘zani — bo‘zani — ko‘zani” qofiya zanjiri). So‘zning ma’nosi unutilgan taqdirda ham, uning tovush tarkibi qofiya vazifasini bajarishda davom etadi.

Ikkinchidan, og‘zaki uzatish an’anasining barqarorligi. Bolalar folklori yozma adabiyotdan farqli o‘laroq, asosan tinglash va takrorlash orqali o‘zlashtiriladi. Bu jarayonda bola so‘zning ma’nosini bilmasa-da, uning tovush shaklini aniq takrorlaydi, natijada arxaik forma “muzlab” qoladi.

Uchinchidan, o‘yinning ijtimoiy-magik vazifasi. Ko‘pgina sanashmachoq va qo‘shiqlar dastlab muayyan marosim yoki e’tiqodiy zaminda yuzaga kelgan (masalan, qush yoki hayvonlarga murojaat qilish orqali “yaxshi kunni chorlash”). Bunday matnlarning “muqaddas” mazmuni ularning so‘zma-so‘z o‘zgarishsiz saqlanishini talab qilgan.

To‘rtinchidan, hududiy va lahjaviy izolyatsiya. Yuqorida ko‘rib chiqilgan qo‘shiqlarning aksariyati chekka tuman va qishloqlardan yozib olingan (Boysun, Qamashi, Bo‘lung‘ur va boshqalar) — bunday joylarda til o‘zgarishlari markaziy shahar shevalariga qaraganda sekinroq kechadi, natijada arxaik qatlam uzoqroq saqlanib qoladi. Yuqorida ko‘rib chiqilgan leksik arxaizmlardan tashqari, bolalar rolli o‘yinlarida semantik arxaizmlar deb ataluvchi hodisa ham kuzatiladi — bunda so‘zning tovush tarkibi bugungi tilda ham saqlangan, biroq uning ilgarigi ma’no qatlami toraygan yoki boshqa ma’noga ko‘chgan bo‘ladi. Toshkent shahri Xadra mahallasidan yozib olingan “Xola-xolakam” nomli syujetli-rolli o‘yinda qizlar “sovchi kelgan kun” mavzusini sahnalashtirar ekan, “sovchi ayol” rolidagi qatnashchi quyidagi iborani talaffuz qiladi:

“Aylanay, eshigingizga qulchilikka keldik.”

Bu yerdagi “qulchilikka kelmoq” iborasi diqqatga sazovor semantik arxaizmdir. “Qul” so‘zining o‘zi zamonaviy tilda ham qo‘llaniladi, biroq uning “kamtarlik bilan xizmatga, iltimosga kelish” ma’nosidagi frazeologik qo‘llanishi — sovchilik marosimiga xos udumiy til birligi sifatida — bugungi kunda faol iste’moldan deyarli chiqib ketgan. Bolalar o‘yinida ushbu ibora kattalar hayotini “ko‘chirib olish” (mimikriya) tamoyili asosida saqlanib qolgan, chunki o‘yin naqadar qadimiy va an’anaviy marosim — sovchilik jarayonini o‘zida aks ettiradi.

Shuningdek, “onaboshi”, “qorovul”, “daverabosh” (davra boshlig‘i), “dugonaboshi” kabi o‘yin ichidagi ijtimoiy rollarni nomlovchi so‘zlar ham semantik arxaizmlarga misol bo‘la oladi. Bu so‘zlarning tarkibidagi “-boshi” unsuri qadimgi

turkiy tillarda “rahbar, boshliq, yetakchi” ma’nosini anglatgan bo‘lib, bugungi adabiy tilda mustaqil so‘z sifatida deyarli qo‘llanmaydi (“boshliq” shakli ustunlik qilgan), biroq o‘yin terminologiyasida bu qadimiy so‘z yasash modeli ayni hozirgacha unumli bo‘lib qolmoqda. Bu — arxaik grammatik-so‘z yasash modelining alohida bir janr doirasida “konservatsiyalashib” qolishining yorqin namunasidir.

Tahlilga jalb qilingan qo‘shiq matnlarining hududiy kelib chiqishini kuzatish ham qiziqarli natijalar beradi. Chorvachilikka oid arxaizmlar (govmish, to‘llamoq) asosan Samarqand va Qashqadaryo kabi dehqonchilik-chorvachilik an’anasi kuchli bo‘lgan hududlardan yozib olingan qo‘shiqlarda uchradi. Moddiy-madaniy arxaizmlar (so‘zana, bo‘za, chuchmomo) esa ham poytaxt Toshkent, ham Surxondaryodek chekka hududlardan qayd etilgan bo‘lib, bu ularning bir vaqtlar butun o‘zbek xalqi turmush tarzida umumiy bo‘lganidan darak beradi. Bu esa shuni ko‘rsatadiki, arxaizmlarning saqlanish darajasi nafaqat hudud, balki qo‘shiqning janr xususiyati (masalan, marosim yoki tabiat mavzusidagi qo‘shiqlarda arxaik qatlam ko‘proq saqlanadi) bilan ham bog‘liq.

Milliy bolalar o‘yin qo‘shiqlari — o‘zbek tilining tarixiy leksik qatlamlarini o‘rganish uchun nihoyatda qimmatli, biroq hozirgacha yetarlicha o‘rganilmagan manbaa hisoblanadi. Tahlil qilingan qo‘shiq matnlarida kamida to‘rtta semantik guruhga oid arxaizmlarni aniqlash mumkin bo‘ldi: 1) chorvachilik-zoonimik leksika (govmish, to‘llamoq); 2) moddiy-madaniy va etnografik atamalar (chuchmomo, so‘zana, bo‘za); 3) tabiat va hayvonot dunyosiga oid so‘zlar (qirg‘iy, qiyo); 4) sanashmachoqlarga xos tovush-so‘z birliklari (oppo-hoppo, petnachi). Ushbu so‘zlarning barchasi umumiy bir xususiyatga ega — ular zamonaviy adabiy tilda faol qo‘llanishdan chiqqan, biroq qo‘shiq matnining ritmik-qofiyaviy tuzilishi tufayli o‘z shaklini saqlab qolgan.

Nafaqat bolalar milliy o‘yinlaridagi qo‘shiqlar, balki barcha milliy folklor namunalari o‘zida millatning, elning butun bir tarixiy xotirasini, uning o‘tmish hayotini saqlaydi va ko‘rsatib beradi. Ularni o‘rganish, kelajak avlodga o‘rgatish va saqlab qolish kerak. Zero, yozuvchi, dramaturg va publitsist Maksim Gorkiy shunday ta’kidlaydi: “San’atning boshlanishi folklordadir. O‘z folkloringizni to‘plangiz va o‘rganingiz”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мардонова Г.А. Ўзбек миллий ўйинлари [Матн]: Оммабоп-адабий нашр. — Тошкент: Bookmany print, 2022. — 158 б.
2. Қурбонова М.А., Қосимова М.У. Миллий ва ҳаракатли ўйинлар: (ЖТИ умумий курс талабаларига мўлжалланган ўқув-услубий қўлланма). — Тошкент: ЎзДЖТИ, 2009. — 65 б.
3. Насриддинов Ф.Н. Ўзбек халқ миллий ўйинлари. — Т., 1993. — 27 б.

4. Расулев А.Т., Пулатов А.А., Қосимова М.У. Ўзбек халқ ўйинлари, уларнинг таснифи ва тавсифи: Ўқув қўлланма. – Т., 1996. – 98 б.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 5 жилдли. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006–2008.

